

**TA'LIM JARAYONI DAVRLARI ASOSIDA DARS O'TISHDA  
O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHLARINI  
RIVOJLANTIRISH**

*Ro'ziyev Muxtor Qayumovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Bu maqolada ta'lim jarayoni davrlariga mos dars o'tishda o'quvchilarning psixik holati to'g'risida so'z boradi. Ta'lim jarayoni davrlari pedagogikada muhim ahamiyatga ega. Shunga mos dars o'tganda o'quvchilardagi psixik holat turlicha bo'ladi va shuningdek o'quvchilarning idroki, tafakkuri, xotirasi to'g'risida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Ta'lim jarayoni, ta'lim jarayoni davrlari, axborotlar to'plash, axborot manbai, psixologiyada qiziqish, axborot to'plashning induktiv yo'li, axborot to'plashning deduktiv yo'li, axborot to'plashning analitik (tahlil yo'li), idrok, tafakkur, xotira.*

Pedagogik texnologiyada ta'limning davriyligi markaziy muammolardan biri hisoblanadi. Ta'limning jarayoni davrlarini o'rganish, ularni ajratish mezonlarini aniqlash, bir davrdan keyingisini farqlash yo'llarini ishlab chiqish, shubhasiz, o'quv ishlari davrlarini qat'iy chegaralash qator yutuqlarga olib keladi. Har bir davr uchun yaroqli ta'lim vositalarini tanlash imkoniyati kengayadi. Davrdan davrga o'tgan sari o'quvchilar o'tasidagi vorislik – o'zlashtirilgan va endi o'zlashtiriladigan bilimlar o'rtasidagi aloqadorlik ta'minlanadi, u yoki bu o'quv materialini to'liq o'zlashtirish uchun zaruriy takrorlash chegarasi aniqlanadi, ta'limning optimal kechishi-harakati uchun shart-sharoit yaratiladi.

Bu o'rinda o'quvchilarga ta'lim tushunchasini mohiyatini, o'quv faoliyati va motivlari, rivojlantiruvchi ta'limning psixologik asoslari, dars jarayonida o'quvchilarni boshqarish texnika va usullari, kompyuterlashgan ta'limning

psixologik jihatlari to'g'risidagi bilimlarni rivojlantirish, ularga jamiyatning kelgusi rivoji va ta'limning o'zaro bog'liqligini tushuntirish va anglatishdan iborat.

Ta'lim jarayoning dastlabki davri o'rganilayotgan mavzu doirasida axborotlar to'plash bilan xarakterlanadi. Axborotlar to'plash yo'li bilan ongda o'rganilayotgan obekt obrazi –timsoli hosil qilinadi. Bir kesma chiziq ustiga son-sanoqsiz nuqtalarni joylashtirish mumkin bo'lganidek, o'quvchilar uchun axborot to'plash yo'llari nihoyatda ko'p. Axborot to'plash yo'llari ko'p bo'lganidek, o'quvchilar uchun axborot manbalari ancha topiladi. Darslik, qo'shimcha adabiyotlar, matbuot. bosma asosli tarqatma materiallar, radio va televedenie, o'qituvchi nutqi, bajarish uchun qo'yilgan muammo, o'quv topshirig'i, mustaqil ishlar, shuningdek, o'quvchilarning o'zaro munozaralari, chaynvord va krassvordlar maktab o'quvchilari uchun axborot manbai hisoblanadi. Axborot to'plash yo'llarini umumlashgan holda uch guruhga bo'lish mumkin.

Axborot to'plashning induktiv yo'llari. Tabiat, jamiyat, ongda amal qiladigan aniq voqea –hodisani ajratish, uni atroflicha tahlil qilish, asosiy belgilarini qayd etish yo'li bilan uni tushunchalarda umumlashtirish yo'lidir. Axborot to'plashning bu yo'lini o'qituvchining izoh-tushuntirishi, o'quvchilarning mustaqil ishlari, shuningdek, oldingi ikki usulning o'zaro kombinastiyasi-materialning qiyin va murakkab qismini o'qituvchining tushuntirishi, nisbatan oson materiallarni o'quvchilarning o'zlari mustaqil o'rganishi shaklida tashkil etiladi.

Ma'lumki psixoliyada o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi qiziqishining ikki turi aniqlanadi. Birinchi bevosita, ikkinchi bilvosita. Har bir o'qituvchi o'z o'quvchilariga o'z faniga nisbatan bevosita qiziqishni tarkib topishiga harakat qiladi. Qiziqishlar orqali o'quvchilarda ta'limga faol munosabat namoyon bo'ladi. Psixologiyada qiziqish –bu shaxsning o'zi uchun qimmatli yoki yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabatidir. Qiziqishlar shaxsning muhim va individual xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qiziqishlar o'quvchilarning hayotida katta rol o'ynaydi. Yuqorida aytilganidek mavzuning o'qituvchi tomonidan sodda, aniq va ravon tushuntirishi o'quvchilarda mavzuga, fanga bo'lgan qiziqishlari yanada ortadi. Shuningdek o'quvchilarda mavzuni, fanni qo'imcha,

mustaqil o'rganish orqali qiqishlari yanada kuchayadi.

Axborot to'plashning deduktiv yo'li. Akseomatik o'quv predmetlari (masalan, matematika) ni o'qitish jaryonida dedukstiya samarali sanaladi. Bu yo'l bilan oldingi mavzularga oid g'oyalar ( qarqshlar, nazariyalar ) xususida axborot beriladi, keyin, tinglangan, tasavvur qilingan g'oyalar o'quv predmetlariga oid faktlarda konkretlashtiriladi, oxirida shu g'oyaning inson faolitdagi o'rni ko'rsatiladi. O'rganilgan bilimlarni o'quvchilar ongida tasavvur qilish orqali, ularning tafakkuri takomillasha boradi. Psixolog N.D. Levseyevning fikricha o'quvchilar tafakkur taraqqiyoti uchun qo'yidagi ko'rsatkichlar mutlaqo zarurdir : a) tafakkurning mustaqilligi , b) o'quv materialiniing tez va puxta o'zlashtirilishi, v) aqliy topqirlik, g) muammo mohiyatiga chuqur kirib borish, ya'ni muhim alomatni nomuhimdan ajrata olish, d) tafakkurning tanqidiyligi. Ana shu fikrlar yuqoridagi axborot to'plashning deduktiv yo'liga mos keladi ya'ni o'quvchilarning axborotlarni tinglashlari, qabul qilib olishlari tufayli o'quv materialni tez va puxta o'zlashtiradilar. Ularning tafakkuri yanada rivojlanadi. Shu o'rinda o'quvchilar qanday axborotlarni tinglaydilar, qabul qiladilar, muhim yoki nomuhimligi katta ahamiyatga bo'ladi. Shuningdek o'quvchilarning topqiriligini alohida ta'kidlash kerak. Masalan testlar ustida ishlash misol bo'la oladi. Tafakkurning tanqidiyligida o'z-o'zini tanqid, baholash, tekshirish, nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishlaridir.

Bu yo'l orqali o'quvchilarda idrok etish xususiyatlari ham rivojlanadi. Idrok – sezgi organlariga bevosita ta'sir etib turgan narsa va hodisalarning kishi ongida butunligicha aks etishidir. O'qituvchi tomonidan biron maqsadni ko'zlagan holda o'quvchilar faolitining rahbarlik qilish jarayonida o'quvchilarning idroki rivojlanadi. Shuning uchun darsda idrok va kuzatishing to'g'ri uyushtirilishi katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida kuzatishlarni faollashtirish uchun o'quvchini kuzatilgan va idrok qilingan narsalarini keyin gapirib berish kerakligi to'g'risida ogohlantirishning ahamiyati kattadir. Agar o'quvchi nimani kuzatganda va idrok qilganligi haqida keyinchalik hisob berishi lozim. Ta'lim jarayoni, ta'lim jarayoni davrlarini oldindan bilsa, u kuzatish va idrok etish jarayonida ancha faol bo'ladi.

Bu usul orqali o'quvchilarning xotirasini rivojlantirishda ijobiy ahamiyatga ega. Xotira bu- doimiy va o'zgaruvchan holda saqlangan ma'lumotlarni o'zgarishidir. Xotira sohasida qo'yidagi asosiy jarayonlar, esda olib qolish, esda saklash, esga tushurish va unutish bir – biridan farq qiladi.

Yuqoridagilardan quyidagicha xulosalar chiqarish mumkin. Ta'lim jarayoni davrlariga mos dars o'tishda o'quvchilar turli xil psixologik rivojlanish xususiyatlariga ega bo'ladilar. Tajribali va mohir o'qituvchilar ta'lim berish jarayonida o'quvchilardagi qobiliyatni, idrokini, tafakkurni, xotirani, faoliyatini aniq ilg'ay oladilar va shu asnoda ta'limni to'g'ri tashkil qila oladilar va boshqara oladilar. Hozirgi vaqtda ta'limni boshqarish dolzarb muammolardandir. O'qituvchini mohirono yuqoridagilarga rioya qilgan holda dars o'tishi ta'limda kafolatlangan natijaga olib keladi. Ta'limda kafolatlangan natija yangi pedagogik texnologiyaning eng ilg'or maqsadidir.

## **ADABIYOTLAR**

1. Roziqov.O, Maxmudov.M . “O stiklax prostessa obucheniya” Pedagogik Mahorat. 2002 y 2-son. 12-19 b.

2. Nishanova. Z.T boshqalar. Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya. “O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati.”nashriyoti. T. 2018 y.471-b.

3. Shamshetova. A K va boshqalar. Umumiy psixologiya. T. Barkamol avlod fayz media. 2018. 64-65 b.

4. Ro'ziyev M. O'zbek Va Nemis Tillarda Fe'ning Majhul Nisbatining Ifodalanishi //Экономика и социум. – 2023. – №. 7 (110). – С. 276-278.

5. Ro'ziyev M. O'zbek Va Nemis Tillarda Fe'ning Majhul Nisbatining Ifodalanishi//Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes–2023–С.181-183

6. Ro'ziyev M. O'zbek Va Nemis Tillarda Fe'ning Majhul Nisbatining Ifodalanishi//Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes–2023–С.181-183

7. Ro'ziyev M. O'zbek Va Nemis Tillarda Fe'ning Majhul Nisbatining Ifodalanishi//Экономика и социум. – 2023. – №. 7 (110). – С. 276-278.

8. Ro'ziyev M. O'zbek Va Nemis Tillarda Fe'ning Majhul Nisbatining Ifodalanishi//Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes–2023–С.181-183

9. Ro'ziyev M. Periods of the educational process and the technology of teaching based on them //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 21. – №. 21.

10. Roziyev M. Periods of the educational process and the technology of teaching based on them //INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429. – 2022. – Т. 11. – №. 06. – С. 207-211.

11. Qayumovich R. M. Periods of the educational process //Central Asian Journal of Theoretical and Applied Sciences. – 2021. – С. 195-201.

12. Ro'ziyev M. O'zbek va nemis tillarida shart maylining berilishi //Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes. – 2022. – С. 203-205.

13. Ro'ziyev M. Ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning psixologik imkoniyatlari //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 1. – №. 1.

14. Ro'ziyev M. TA'LIM JARAYONINING UCHINCHI DAVRI ASOSIDA NEMIS TILI DARSLARINI O'TISH TEXNOLOGIYASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 3. – №. 3.

15. Ro'ziyev M. Didaktik hodisalar tizimiga zamonaviy yondashuv //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.